



TARBIYACHI PEDAGOGLARDA IJODKORLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

O`rinova Feruza O`ljayevna

FarDU dotsenti, p.f.n

Homidova Gulshoda Baxromjon qizi

FarDU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lajak tarbiyachilarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish, bolalardagi kreativlikni vaqtida aniqlash va bu jarayon bilan to'g'ri ishlash haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, bo'lajak tarbiyachilar, fan va ta'lim, kreativlik, bolalarda kreativlik, shaxs sifatleri.

Kundan kun rivojlanib borayotgan zamonda har bir soha mutahassislardan talab qilinayotgan xususiyatlardan biri bu kreativlik, yani o'z kasbiga kreativ yondashuvdir. Kreativlik deganda insonning yangi yangi g'oyalar ishlab chiqarishi, murakkab ko'rinib turgan, yechimi ochiq turgan muammolarga yechim topa bilishi, tavakkalchilik qobiliyati, o'zining kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashuvi hamda kasbiy yetukligi kabi harakatlari nazarda tutiladi.

Kreativlik (lot., ing. "sreate"—yaratish, "sreative"—yaratuvchi, ijodkor) — individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida



iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni umumiy yoki uning ma'lim bir xususiyatlarini, iqtidorini, zehn o'tkirligini ifodalaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi. Boshqa har qanday fazilat kabi kreativlik ham insonda o'z-o'zidan yoki birdaniga shakllanib qolmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, bolalarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi. Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'yimoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish" vazifasi belgilandi. Sifatli ta'lim xizmatlarini imkoniyatlarini oshirish, mehnat



bozorining imkoniyatlariga mos keluvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, oliy ta'lim muassasalari ta'lim sifati va samaradorligini oshirish kabi yo'nalishlar belgilanib, bu borada oliy ta'lim muassasasi pedagoglarini hamda bo'lajak mutaxassislarni kreativligini rivojlantirish, doimiy yangilanib turuvchi jamiyat hayotiga yangicha fikr va qarashlar bilan yondashuvchi yosh avlodni zamon talablariga mos ravishda tarbiyalash oliy ta'lim muassasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi.

Pedagog-tarbiyachi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Jahon miqyosida pedagogik tajriba va ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida inson hayoti davomida egallaydigan barcha ma'lumotining 70%ini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi o'z isbotini topgan. Darhaqiqat, bu davr mobaynida bola dunyoni idrok qilishni boshlaydi, fikrlaydi, atrof- olam bilan tanishadi, umri davomida oladigan bilimlarga zamin tayyorlaydi. Yurtimiz kelajagi hisoblangan yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarning o'рни beqiyosdir. Shu zarurat yuzasidan malakali, qobiliyatli, ijodkor hamda o'z sifatleri ustida doim ishlovchi, rivojlanuvchi kadrlar yetishtirish maktabgacha ta'lim tashkilotlariga zarur va shart hisoblanadi. Yosh avlod vatan kelajagi, jamiyatimiz o'rnagi hisoblanadi. Albatta bu jarayonda oiladan tashqari bola deyarli 70% vaqtini maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkazadi. Bu vaqt davomida bilimli tarbiyachilar bolalarning ham kreativ hususiyatlarini



rivojlantira olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirish jarayonida ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash, bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish, bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish, bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish lozim. Har bir shaxsda hoh u kichik yoshda bo'lsin hoh katta yoshda har bir shaxsga xos kreativ sifatlar mavjud bo'ladi. Bunday sifatlar mavjud bo'lgan tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlar qabul qila olish malakasi, tassavur boyligi kengligi, hissiyotlarga boyligi, o'z ijodkorligini to'la-to'kis namoyish eta olishi, refleksiya qobiliyati, tafakkur tezligiga egalik, ichki sezgining rivojlanganligi va o'ziga xos (orginal) g'oyalarni ilgari sura olish qobiliyatlari kabi ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bo'lajak tarbiyachilar uchun kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvning joriy etilishi ta'lim mazmuniga, o'qitish shakliga, usullariga, pedagogik texnologiyalari, nazorat usullariga hamda ta'lim va tarbiya jarayonida yangiliklar va o'zgarishlar kiritishni talab etadi. Shunga binoan, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarini o'qitishda ta'limni tashkil etishning mavjud shakllari bo'lgan ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini mazmunan yangilash, qo'shimchalar kiritilishi nazarda tutiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пиаже, Ж. Психология интеллекта. – СПб .: Питер, 2003.
2. Тихомирова, Л.Ф. Формирование и развитие интеллектуальных способностей ребенка. - М.: Рольф, 2000.
3. O'ljayevna O. F. Et al. Innovatsion texnologiyalar yordamida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy salohiyati samaradorligini oshirish yo 'llari //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – т. 3. – №. 3. – с. 311-315.
4. Urinova F., Azizmatova Z., Fazliddinova. Didactic foundations for forming the professional competence of the future teacher. //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – т. 3. – №. 4 part 4. – С 197-202.
5. O'rinova F. Innovative reforms in the modern preschool education system //Science and innovation. – 2023. – т. 2. – №. B2. – С 557-561.
6. Uljayevna U. F. The activity of developmental centers in the formation of children's abilities /Science and innovation – 2022 – т.1 №. B2. – С 107-110.
7. Uljayevna O. F. Et al. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash tamoyillari //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С 654-659.
8. Uljaevna U. F. Et al. Development of creative activity of preschool children in art game as a psychological and pedagogical problem //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С 47-51.
9. Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi. The concept of cosmonics and its nature”. International conference on Studies in Humanity, Education and Sciences Helsinki, Finland.ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, January 10th 2022
10. Urinova Feruza Uljayevna, Valiyeva Hojirakhon Ilhomjon kizi. Development of intellectual abilities of preschool children. Through developing technologies. Modern journal of social sciences and humanities. Issn:2795-4846.Vol.4/ (2022).



11. Uljaevna U. F. et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 4. – C 444-448.
12. Uljaevna u. F. Et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern journal of social sciences and humanities. – 2022. – T. 4. – C 444-448.
13. Uljayevna O. R. F. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy pedagogik kompetensiyani takomillashtirish xususiyatlari //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B2. – C 88-91.